

O‘ZBEK TILI “AXLOQ” KONSEPTOSFERASIDA QADRIYATLAR IYERARXIYASINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI (“HALOLLIK”, “ADOLAT”, “VIJDON” KONSEPTI MISOLIDA)

Bobojonova Shohsanam Sharifboyevna,

Navoiy davlat universiteti doktoranti

shohsanambobojonova123@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada konseptlarning muhim belgisi ularning iyerarxik manzarasi ekanligi, yuqori darajada umumiy “metaqadriyat”, ya’ni “axloq” konsepti turishi, uning tarkibida jamiyat tomonidan maxsus qadrlanadigan yadro fazilatlar (halollik, adolat, vijdon va boshqalar) joylashishi ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, bu yadro fazilatlar, o‘z navbatida, subqadriyatlarga (masalan, halollik – rostgo‘ylik, poklik, mehnatsevarlik; adolat – haqqoniylik, tenglik, insoflilik) ajralishi maqolada o‘z aksini topgan.

Kalit so‘zlar: axloq, munosabat, konsept, halollik, adolat, vijdon, yadro, markaz, tamoyil, iyerarxiya.

Abstract. This article shows that an important feature of concepts is their hierarchical structure, that at a high level there is a general “metavalue”, that is, the concept of “morality”, which includes core qualities that are especially valued by society (honesty, justice, conscience, etc.). The article also shows that these core qualities, in turn, are divided into sub-values (for example, honesty – truthfulness, purity, diligence; justice – fairness, equality, impartiality).

Keywords: ethics, attitude, concept, honesty, justice, conscience, core, center, principle, hierarchy.

Аннотация. В данной статье показано, что важной особенностью понятий является их иерархическая структура, что на высоком уровне существует общее “метазначение”, то есть понятие “нравственности”, включающее в себя основные качества, особенно ценимые обществом (честность, справедливость, совесть и т. д.). В статье также показано, что эти основные качества, в свою очередь, делятся на подценности (например, честность – правдивость, чистота, усердие; справедливость – беспристрастность, равенство, беспристрастность).

Ключевые слова: этика, отношение, концепция, честность, справедливость, совесть, ядро, центр, принцип, иерархия.

Kirish. Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi “axloq” konseptosferasining kognitiv mundariyasi, ya’ni konseptning milliy lisoniy manzaradagi mazmuniy qatlamlari, aksiologik mezonlari va qadriyatlar iyerarxiyasi til birliklari orqali qanday namoyon bo‘lishi izchil yoritilgan. Maqolada “axloq” konsepti faqat leksik ma’no doirasida emas, balki milliy-madaniy va jamoaviy tajriba, madaniy kod, ijtimoiy nazorat va shaxsiy mas’uliyatning tilga ko‘chirilgan modeli sifatida tahlil qilinadi.

Halollik “axloq” konseptosferasining yadro komponentlaridan biri bo‘lib, u rostgo‘ylik, poklik, haqqo‘ylik, mehnatga sadoqat kabi subqadriyatlar tizimi orqali konkretlashadi. Kognitiv jihatdan halollikning asosiy funksiyasi – shaxs va jamoa o‘rtasidagi ishonch mexanizmini barqarorlashtirish hamda xatti-harakatni me’yoriy “o‘lchov” bilan muvofiqlashtirishdir. Shu sabab halollik ko‘pincha “norma” (nima qilish

mumkin/mumkin emas) va “baholash” (ma’qullash/qoralash) bloklari bilan birga aktualizatsiyalanadi: halollik mavjud bo‘lgan vaziyatda shaxsning niyati va amali “to‘g‘ri” deb topiladi, firibgarlik va yolg‘on bilan bog‘liq vaziyatda esa baho salbiylashadi. Til materialida halollikning yadro belgilari odatda halol, rost, pok, sof, haq kabi leksik indikatorlar orqali ifodalanadi [1] va ular semantik nuqtayi nazaridan ijobiy konnotatsiyaga ega. Muayyan kommunikativ vaziyatlarda halollik “fazilat” sifatida belgi qilinadi, ba’zan esa “tamoyil” sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, halollik – “axloq”ning abstrakt mezonini konkret kundalik amaliyotga bog‘lovchi oraliq konsept sifatida konseptual iyerarxiyada barqaror o‘rin egallaydi.

Adabiyotlar tahlili. Z.D. Popova va I.A. Sterninning fikricha, so‘z bilan nomlash (verbal nominatsiya) konseptni ajratishning majburiy sharti emas, lekin ayni paytda, – konseptual bilimlarga kirish vositasidir [2].

“Halollik” konseptining diskursiy profili pedagogik, huquqiy, diniy matnlarida, ayniqsa, ravshan ko‘rinadi. “Pedagogik va tarbiyaviy nutqda u ko‘pincha “namuna – ibrat” ssenariysi bilan birga keladi, fazilatli shaxs (yoki qahramon) misol sifatida ko‘rsatilib, tinglovchidan shu fazilatni egallash talab etiladi. Huquqiy va ijtimoiy diskursda esa halollik ko‘proq “javobgarlik-oqibat” freymi tarkibida aktualizatsiyalanadi” [3]. Diniy diskursda halollik “savob-gunoh” kodi bilan integratsiyalanib, me’yorlarning transsendent legitimatsiyasini kuchaytiradi. Metaforik tasvirlarda halollik ko‘pincha “tozalik” yoki “mustahkam poydevor” bilan bog‘lanadi. Bu esa axloqiy fazilatni ichki poklik va barqarorlik sifatida konseptualizatsiya qilishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot o‘zbek tili “axloq” konseptosferasidagi qadriyatlar iyerarxiyasining lingvistik xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, unda kognitiv-semantik, lingvokulturologik hamda aksiologik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida “halollik”, “adolat” va “vijdon” konseptlarining leksik-semantik maydoni, diskursiy qo‘llanishi va pragmatik funksiyalari qiyosiy-deskriptiv yondashuv asosida tahlil qilindi. Shuningdek, konseptlarning yadro va periferik qatlamlarini aniqlashda semantik prosodiya hamda freym tahlili usullaridan foydalanilib, ularning milliy lisoniy manzaradagi aksiologik o‘rni yoritildi.

Tahlillar va natijalar. Pragmatik jihatdan halollik odatda yuqori baholash predikatlar bilan birga qo‘llanadi (“halollikli inson”, “halollik mezoni”), uning antipodi firibgarlik va yolg‘on esa qoralovchi nutq aktlarida kuchli ishlaydi. Natijada, halollik konsepti o‘zbek tilida axloqiy tarbiya va ijtimoiy nazoratning lisoniy indikatorlari sifatida faol ishlatiladi.

Adolat “axloq” konseptosferasining yadro komponentlaridan biri bo‘lib, u haqqoniylik, tenglik, insoflilik, qonuniylik kabi qadriyatlar tizimi orqali konkretlashadi. “Kognitiv jihatdan adolatning asosiy funksiyasi shaxs va jamoa o‘rtasidagi ishonch mexanizmini barqarorlashtirish hamda xatti-harakatni me’yoriy “o‘lchov” bilan

muvoqilashtirishdir” [4]. Shu sabab adolat ko‘pincha “me‘yor” (nima qilish mumkin/mumkin emas) va “baholash” (ma‘qullash/qoralash) ma‘nolari bilan birga faollashadi. Til materialida adolatning yadro belgilari odatda *adolat, haq, nohaq, zulm, adolatli* kabi leksik indikatorlar orqali ifodalanadi [5] va ular semantik nuqtayi nazaridan ijobiy konnotatsiyaga ega. Muayyan kommunikativ vaziyatlarda adolat shaxs xarakterining doimiy belgisi, ba‘zan esa “tamoyil” sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, adolat – “axloq”ning abstrakt mezonini konkret kundalik amaliyotga bog‘lovchi oraliq konsept sifatida konseptual iyerarxiyada barqaror o‘rin egallaydi.

“Adolat” konseptining diskursiy belgisi huquqiy, ijtimoiy, ma‘rifiy matnlarida ayniqsa ravshan ko‘rinadi. Pedagogik va tarbiyaviy nutqda u ko‘pincha “namuna-ibrat” ssenariysi bilan birga keladi, fazilatli shaxs (yoki qahramon) misol sifatida ko‘rsatilib, tinglovchidan shu fazilatni egallash talab etiladi. Huquqiy va ijtimoiy diskursda esa adolat ko‘proq “javobgarlik-oqibat” freymi tarkibida faollashadi. Diniy diskursda adolat “savob-gunoh” kodi bilan integratsiyalanib, me‘yorlarning transsendent legitimatsiyasini kuchaytiradi. [6] Metaforik tasvirlarda adolat ko‘pincha “tozalik” yoki “mustahkam poydevor” bilan bog‘lanadi. Bu esa axloqiy fazilatni ichki poklik va barqarorlik sifatida konseptualizatsiya qilishga xizmat qiladi. Pragmatik jihatdan adolat odatda yuqori baholash predikatlari bilan birga qo‘llanadi (“adolatli inson”, “adolat mezonini”), uning antipodi nohaqlik va zulm esa qoralovchi nutq aktlarida kuchli ishlaydi. Natijada, adolat konsepti o‘zbek tilida axloqiy tarbiya va ijtimoiy nazoratning lisoniy indikatorlari sifatida faol ishlatiladi.

Vijdon “axloq” konseptosferasining yadro komponentlaridan biri bo‘lib, u mas‘uliyat, pushaymonlik, o‘zini hisobga tortish, ichki nazorat kabi subqadriyatlar tizimi orqali konkretlashadi. Kognitiv jihatdan vijdonning asosiy funksiyasi – shaxs va jamoa o‘rtasidagi ishonch mexanizmini barqarorlashtirish hamda xatti-harakatni me‘yoriy “o‘lchov” bilan muvoqilashtirishdir. Shu sabab vijdon ko‘pincha nima qilish mumkin/mumkin emas va “baholash” bloklari bilan birga faollashadi. *Vijdon* mavjud bo‘lgan vaziyatda shaxsning niyati va amali “to‘g‘ri” deb topiladi, befarqlik va vijdonsizlik bilan bog‘liq vaziyatda esa baho salbiylashadi. Til materialida vijdonning yadro belgilari odatda vijdon, vijdonan, vijdonsiz kabi leksik indikatorlar orqali ifodalanadi va ular semantik prosodiya nuqtayi nazaridan ijobiy konnotatsiyaga ega. Demak, vijdon – “axloq”ning mavhum mezonini konkret kundalik amaliyotga bog‘lovchi oraliq konsept sifatida konseptual iyerarxiyada barqaror o‘rin egallaydi.

Vijdon konseptining diskursiy profili badiiy, ma‘rifiy, diniy matnlarida ayniqsa ravshan ko‘rinadi. Pedagogik va tarbiyaviy nutqda u ko‘pincha “namuna-ibrat” ssenariysi bilan birga keladi, fazilatli shaxs (yoki qahramon) misol sifatida ko‘rsatilib, tinglovchidan shu fazilatni egallash talab etiladi. [7] Huquqiy va ijtimoiy diskursda esa vijdon ko‘proq “javobgarlik-oqibat” freymi tarkibida faollashadi. Amal natijasi jamiyat manfaatiga ta‘siri

nuqtayi nazaridan baholanadi. Diniy diskursda vijdon “savob-gunoh” kodi bilan umumlashadi. Metaforik tasvirlarda vijdon ko‘pincha “tozalik” yoki “mustahkam poydevor” bilan bog‘lanadi, bu esa axloqiy fazilatni ichki poklik va barqarorlik sifatida konseptualizatsiya qilishga xizmat qiladi. Pragmatik jihatdan vijdon odatda yuqori baholash birliklari bilan birga qo‘llanadi (“vijdonli inson”, “vijdon mezoni”), uning qarama-qarshi ma‘nosi befarqlik va vijdonsizlik esa qoralovchi nutq aktlarida kuchli ishlaydi. Natijada, vijdon konsepti o‘zbek tilida axloqiy tarbiya va ijtimoiy nazoratning lisoniy indikatorlari sifatida faol ishlatiladi.

XULOSA. “Axloq” konseptosferasining markazida baholash kategoriyasi turadi. “Baholashning lingvistik ifodasi ikki o‘qda tashkil topadi: 1) kvalifikativ baholash (xatti-harakat yoki shaxs sifatini “yaxshi/yomon”, “odobli/beodob”, “axloqli/axloqsiz” tarzida belgilash); 2) normativ baholash (amalning ijtimoiy-diniy me‘yorlarga mosligi: “mumkin/mumkin emas”, “halol/harom”, “savob/gunoh”). [8] Bu ikki o‘q ko‘pincha bitta gapda ham birlashadi: normaga mos amal kvalifikativ jihatdan ham ijobiy baholanadi, norma buzilishi esa salbiy kvalifikatsiyani keltirib chiqaradi. Aksiologik tahlilda baho nafaqat leksik ma‘noda, balki pragmatik vazifada ham ko‘riladi: baholash orqali nutq egasi tinglovchiga ta‘sir ko‘rsatadi, xulqni yo‘naltiradi, ijtimoiy mas‘uliyatni eslatadi. [9]

Semantik prosodiya tushunchasi baholashning kontekstual fonini aniqlashda qulay. Muayyan birlik (masalan, “axloq”) ko‘pincha ijobiy (yuksak, pokiza, sog‘lom) sifatlar bilan birikib kelishi mumkin; “axloqsiz” esa salbiy prosodiyaga ega bo‘lib, qoralovchi predikatlar (qoralamoq, tanqid qilmoq, jirkanmoq) va keskin emotsional birliklar (uyatsiz, beandisha) bilan birga uchrashi ehtimoli yuqori bo‘ladi. Bunday belgilar konseptosferada baholash iyerarxiyasini operatsionlashtirishga yordam beradi. Qaysi birliklar “yadro”ga tegishli ijobiy bahoni kuchaytiradi, qaysilari esa salbiy zona indikatoriga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 80 000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi. 6 jildli.
2. Popova, Sternin. 2007: 58.
3. Djurayeva S.N., Turdiyeva N.S., Baxronova A.I. *Tarbiyaviy ishlar metodikasi* (o‘quv qo‘llanma). Buxoro, 2021. 24-bet.
4. Karasik V.I. *Концепты-регулятивы // Язык, сознание, коммуникация*. Вып. 30. Москва: МАКС Пресс, 2005. 97-bet
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80 000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi. Toshkent, 2008..
6. Bu haqida qarang. Popova Z.D., Sternin I.A. *Semantiko-kognitivnyy analiz yazyka*, 2007. 73-bet.
7. Djurayeva S.N., Turdiyeva N.S., Baxronova A.I. *Tarbiyaviy ishlar metodikasi*. Buxoro, 2021. 31-bet.
8. Fillmore Ch.J., Atkins B.T.S. Toward a frame-based lexicon: the semantics of RISK and its neighbors. In: *Frames, Fields, and Contrasts*. Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum, 1992.
9. Volf E.M. *Funktsionalnaya semantika otsenki*. Moskva, 2002; Arutyunova N.D. *Tipy yazykovykh znacheniy*: Otsenka. Moskva, 1988.